

LEKSIKOLOGIYA VA UNDAGI MA'NO KO'CHISH USULLARI

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

O'roqova Bahora Azamat qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi leksikologiya haqida ma'lumot berib o'tiladi va ma'no ko'chish usullari haqida atroflicha so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** leksikologiya, o'z ma'no, ko'chma ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.*

KIRISH

Tishlari dur, oy yuzli, kipriklari o'q, lablari g'uncha shu kabi o'xshatishlar o'zbek tilining qanchalik go'zal ekanligiga va uning lug'at boyligiga yana bir isbotdir. Yosh avlodning og'zaki va yozna nutqini shakllantirish va uning so'z boyligini oshirish masalalariga to'xtalar ekanmiz tilshunoslikning so'z ta'limoti haqidagi bo'limi-leksikologiya ushbu yo'nalishdagi juda keng imkoniyatlarni yaratib bera olishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Leksikologiya bo'limida o'quvchilar duch keladiga birinchi muammo esa so'zning o'z va ko'chma ma'nolaridir. Berilgan so'z birikmalarini ko'chma ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratish, ularni o'zaro qiyoslash asosida so'zni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil etish so'zlarni ko'chma ma'nolarda matn yaratish singari ijodiy amaliy ishlar

o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.¹

Leksikologiya (yunoncha so'z yoki so'z uchun va o'rganish) so'zlarning ma'nosini va ularning semantik munosabatlarini, bir tilning lug'at tarkibini o'rganadi. Leksikologiya bir so'zning yakka holda emas balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiyaning o'rganilish obyekti va predmeti so'zdir.

O'z ma'no va ko'chma ma'no

So'zlarda ma'no ikki xil bo'ladi. O'z ma'no va ko'chma ma'no. O'z ma'no turi so'zlarni yakka holda kelganda ham matn tarkibida kelganda ham bir ma'no anglatishidir.² Yakka kelganda boshqa ma'no matn ichida kelganda boshqa ma'noni anglatrsa ko'chma ma'no bo'ladi. Masalan: qaynoq qalbli inson, sovuq xabar, ichi qora. Bu misollarda ko'rinib turganidek qaynoq, sovuq, qora so'zlari o'z ma'nosida emas ko'chma ma'noda qo'llangan. Chunki xabarning sovuq'i bo'lmaydi, qalbning esa qaynog'i.

Ma'no ko'chishi

O'zbek tilida ma'no ko'chislari asosan so'zlashuv va badiiy uslublarda foydalaniladi.³ Ma'no ko'chishi- bir predmet yoki hodisa nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishidir. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet yoki hodisa o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan sovuq leksemasi haroratga nisbatan qo'llaniladi, ammo sovuq niyat qilmang birodar deyilganda sovuq so'zi haroratni emas niyatni va ifodalamoqda.

Leksikologiyada ma'no ko'chish turlari quyidagilar:

1. Metafora
2. Metonimiya
3. Sinekdoxa
4. Vazifadoshlik

Muhokama va natijala

¹H.Jamolxonov "Hozirgi O'zbek Adabiy Tili" Toshkent 2005

² www.cyberleninka.ru

³ Hozirgi o'zbek adabiy tili" akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik "Toshkent 2013

Metafora

Metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi:

- a) ifodalanayotgan predmetlar o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik asosida: yoqa (ko‘ylakning yoqasi- bosh leksik ma,no), yoqa(ariqning yoqasi- hosila ma’no).
- b) ikkita belgi-xususiyat o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida:

Metonimiya

Metonimiya (grekcha meta- qayta, anoma-nom) predmet narsa hodisalarning makon va zamondagi bog‘lanishidan birining nomini ikkinchisiga ko‘chirish asosida yuzaga keladigan ma’nodir.¹ Bu usul bilan nom ko‘chirilishda tashqi, ichki belgidadi o‘xshashlik emas balki orasidagi doimiy aloqaning mavjudligi hisobga olinadi.

Metonimiya yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi:

- a) asar muallifining nomi nutqda “asar” ma’nosida qo‘llangan bo‘lishi mumkin: Fuzuliyning oldim qo‘limga,

Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi. Bunday paytlarda muallif nomi aytiladi-yu, uning asari yoki asarlari nazarda tutiladi.

Sinekdoxa

Sinekdoxa (grekcha sinekdohe birga anglamoq) butun nomi bilan qismni yoki qism nomi bilan butunni ifodalash asosida so‘z ma’nolarini ko‘chishi. Sinekdoxa qisman o‘rin anglatish munosabatiga ko‘ra metonimiyaga kiradi.

Sinekdoxa yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi:

- a) butunning nomi qismga ko‘chiriladi: besh qo‘l barobar emas.
- b) qismning nomi butunga ko‘chiriladi: tirnoqqa zor.

Vazifadoshlik

Vazifadoshlik (funksiyadoshlik) bir predmetning vazifasini ikkinchi bir predmet bajarishi natijasida avvalgining nomini keyingisi ifodalashi asosida ko‘chishidir. Bu usul bilan ma’no ko‘chish bir tomondan metaforaga o‘xshasa ham, u metaforadan

¹ M.Arabboyeva “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional fuqorolik kompetensiyalarni rivojlantirish” Toshkent 2022.

vazifa bajarish xususiyatiga asoslanishi bilan farq qiladi. Masalan, o‘q (kamon) o‘q (har xil qurollar o‘qi).

Xulosa ushbu maqolada leksikologiyaning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan ma’no ko‘chish turlari yoritildi. Ma’no ko‘chish turlari ona tilimizning ma’noli va ifodali bo‘lishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. H. Jamolxonov “Hozirgi O‘zbek Adabiy Tili” Toshkent 2005
2. www.cyberleninka.ru
3. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik “Toshkent 2013.
4. M. Arabboyeva “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional fuqorolik kompetensiyalarni rivojlantirish” Toshkent 2022.